

SOBIR O'NAR HIKOYALARIDA PORTRET RUHIY TASVIR VOSITASI SIFATIDA

Berdiyeva Zulayxo Ochilovna

Qarshi Davlat Universiteti

Tayanch doktranti (PhD tadqiqotchisi)

zulayxoberdiyeva1407@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0916-7886

Annotatsiya: Maqolada asosan, adabiyotning eng kichik epik janrlaridan biri bo'lgan hikoya janrida portret yaratish sirlari hamda ijodkorning estetik ideali va mahorati masalalari haqida nazariy xulosa va takliflar haqida mulohaza yuritilgan. Ijodkorning asar yaratish jarayonidagi ruhiy-emotsional holati, ideali, zamon va ijtimoiy muhit, davr muammolariga ijtimoiy munosabati kabi tushunchalar nazariy asoslangan. Iste'dodli yozuvchi, mohir hikoyanavist Sobir O'narning "Jinko 'chadagi mushtipar", " hikoyasi syujet tizimi portret tasviri va ijodkor estetik idealiga muvofiq tadqiq qilingan. Bu mulohazalar adabiyot va ilm uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hikoya, portret, mahorat, uslub, ijodkor, badiiy, obraz, ruhiyat, makon, zamon, komponent, estetik ideal.

Abstract: The article mainly discusses the secrets of creating a portrait in the narrative genre, one of the smallest epic genres of literature, as well as theoretical conclusions and proposals on the issues of the aesthetic ideal and skill of the creator. The concepts of the creator's mental and emotional state in the process of creating a work, his ideal, the time and social environment, and social attitude to the problems of the era are theoretically based. The stories of the talented writer, skilled storyteller Sobir Onar "Fighter in the Alley" is studied in accordance with the plot system of the portrait image and the aesthetic ideal of the creator. These considerations serve as an important theoretical source for literature and science.

Key words: story, portrait, skill, style, creator, artistic, image, spirit, space, time, component, aesthetic ideal.

Аннотация: В статье в основном рассматриваются секреты создания портрета в повествовательном жанре, одном из самых малых эпических жанров литературы, а также теоретические выводы и предложения по вопросам эстетического идеала и мастерства художника. Теоретически обоснованы концепции психического и эмоционального состояния художника в процессе создания произведения, его идеала, времени и социальной среды, а также общественного отношения к проблемам эпохи. Рассматриваются рассказы талантливого писателя, искусного рассказчика Собира Онара «Боец в переулке» в соответствии с сюжетной системой портретного образа и эстетическим идеалом художника. Эти соображения служат важным теоретическим источником для литературы и науки.

Ключевые слова: история, портрет, мастерство, стиль, создатель, художественный, образ, дух, пространство, время, компонент, эстетический идеал.

Kirish. Badiiy adabiyotda roman, qissa, hikoyalar tadqiqida ayniqsa portret tabiati muhim nazariy hodisalardan hisoblanadi. Portret bu badiiy asar qahramonlarini aniq va ravshan tasavvur qilishga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositasidir. Ya'ni yozuvchi yoki ijodkorning badiiy mahoratini, iste'dodini uning portret yaratish mahoratiga qarab ham belgilasa bo'ladi. Epik turning kichik janri bo'lmish hikoyada ko'p hollarda portret, asosan aniq va qisqa holatda chiziladi, ammo bunga qaramay portret qahramon xarakterini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Adabiyotshunoslik ilmida hikoya janrida qalam tebratgan yozuvchi va ijodkorlar o'z asarlarida portret tasviri va ruhiy olami masalalariga alohida e'tibor berganlar. F.f.d. prof. Imomova Gulchehra Muhammadiyevna ilmiy tadqiqotlarida hikoya janri rivojida obraz tanlay olish, xarakter yarata olish mahorati haqida "Ijodkorning baxti o'z xalqining xarakter xislatlarini yagona bir obraz timsolida aks ettira olishi bilan belgilanadi. Chunki u ana shu obraz qiyofasida butun bir xalqning ma'naviy- axloqiy xislatlarini kichik detal orqali ifodalaydi"[Imomova G. 1:1] deb ta'kidlagan.

"Biz odamlarning o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlashda mavjud insonlarga monand va ayni paytda chiroyliroq tarzda ishlaydigan yaxshi portret ustalaridan o'rnak olishimiz kerak"[Arastu 2: 41-b] .

Yuqoridagi tadqiqotlar mohiyatidan kelib chiqib maqolamizda XXI asr adabiyotining serqirra yozuvchisi, mashhur hikoyanavist Sobir O‘narning “Jinko‘chadagi mushtipar” hikoyasini biografik, psixoanalitik, struktur tahlil metodlariga asoslangan holda tahlilga tortdik.

Tahlil va natijalar “Portret” – (fr.portraire- tasvirlamoq) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), kitobxon tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli obrazni yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir [Abdullayev N. 3: 12]. Iste’dodli yozuvchi Sobir O‘nar o‘zining “Jinko‘chadagi mushtipar” nomli hikoyasida qahramon ruhiyati uning ichki olami manzaralarini portret tasvir vositasi orqali ta’sirli chizgilarda chizadi. Muallif hikoyada asosan, o‘zining g‘oyalari, qarashlari, estetik ideali hamda jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar ta’sirida portret yaratadi. Bir qancha hikoyalar syujet rivojini, asarning kulminatsion nuqtalarini ta’minlab beruvchi asosiy unsurlar qahramonlar ruhiyati tasviri, ularning kayfiyati, o‘y – fikrlari, holatlari hisoblanadi. Shu boisdan ham qahramon portreti muhim hisoblanadi. “Uni har kuni uchratar edim. O‘sha – jiydaga o‘xshash zahil yuzi, quruqshagan labi, qoqsuyak qo‘llariga emas, balki, bukchayib qolgan bu kampirning ma’sumona boquvchi ko‘zlariga ko‘zim tushmasin uchun, - yoshini yashab, qartayib - mung‘ayib qolgan sho‘rlik shu bechoraga hech mahal yordam berolmasligimni bilib, dunyodagi eng yomon musibatni shuning qiyofasida ko‘rishni istamaganimdan, - hamisha o‘zimni undan olib qochib yurardim. Uning picha qiyshaygan jag‘i angrayishiga juda mos, go‘ya soddaligi bo‘rtib ko‘zga tashlansin uchun, Yaratganning o‘zi atay shunday qilgandek. Jovdiragan ko‘zlarini aytmayisizmi, ko‘zmunchoqning o‘zginasi, ular eski shaharning jinko‘chasidan o‘tuvchilarga mo‘ltirab tikiladi, xuddi bir nima tilayotgandek...” [O‘nar. S. 3: 157-bet]. Ushbu portret tasvirida mushtipar kampir tashqi va ichki qiyofasi shu qadar jonli tasvirlanganki, beixtiyot hikoyani o‘qiyotgan kitobxon ko‘z o‘ngida qartayib qolgan, so‘lg‘in yuzli, ammo ko‘zlarining tubida murg‘ak qo‘zichoqni eslatadigan mehr yashiringan kampir siymosi gavdalanadi. Obraz ruhiyati juda ham nozik psixologik tahlilga asoslangan hamda realistik uslubda tasvirlangan. “Kampir erkalabmi, ko‘pincha, “ha Saritoy” deyishini eslayman; sariqligim uchun shunday derdi, atay ismimni aytmadi.” hikoyadan olingan galdagi portret tasvirida mushtipar kampir student bolalarga naqadar mehribonlik ko‘rsatgani, ularni erkalab “Saritoy” deb chaqirgan o‘rinlari beriladi. Bu hol kampir qalbining naqadar bolajon, shavqatli ekanligiga ishora o‘laroq keltirilgan. Talaba yigitlar ijaraga uy qidirib, rosa tentirab yurgan vaqtlarida kampir ularga rahmi kelib uyining to‘ridan joy beradi. “Hamon esimda u avvaldan bizlarga ilhaq bo‘lib o‘tirganday: “Kelinglar, kelinglar. Ko‘p ovora bo‘psizlar-da, mayli, sizlar manavi katta uyda turaqolinglar”, degan. O‘zlariga esa katalakdek xona qolgan. Yuqoridagi parchalarni har qaysida mushtipar kampir portreti botiniy va zohiriy holatga ishora tarzida chizilgan.

Xulosa: Tahlilga tortilgan hikoyalar, asar qahramonlari portretlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sobir O‘nar iste’dodli va kamtarin, samimiy yozuvchi. Uning hikoyalari qahramonlari, asosan, oddiy qishloq odamlari, soddadil, qalb ko‘zi ochiq insonlar. Yozuvchi portretlarni mohir badiiy, konsentrik uslubda chizadiki, syujet voqealar izchil tartibda rivojlanib boradi. Muallifning psixologik tahlilga asoslangan uslubi va ramzlar orqali fikr bildirish yondashuvi hikoyalarning badiiy va falsafiy ko‘lamini kengaytiradi. Bu esa adabiyotimizda hikoya janrining yangicha qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imomova G.M. “O‘zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning estetik konsepsiyasi.” Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Qarshi-2022-yil
2. Arastu. Poetika. Ritorika. Toshkent- 2011, 41-b.
3. Abdullayev Ne‘mat, Madraimov Abdumajid O‘z.ME – Birinchi jild.- Toshkent, 2000-yil.
4. O‘nar Sobir. Chambilbelning oydalasi, “Read book” nashriyoti, Toshkent – 2004–yil. 57-bet.
5. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar. – T., “Akademnashr”, 2013. -336 bet.

Internet saytlari

6. <https://ziyo.uz.com>
7. <https://kh-davron.uz>
8. <https://kutubxona.uz/>